

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6/S-son (4-jild)

**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 5/6 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизиллович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

<i>Умарханова Дилдора Шарипхановна</i> ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ .....	9-14
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR.....	15-26
<i>Собирова Нозимахон</i> СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОВЕСТНОСТИ: РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ .....	27-36
<i>Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли</i> ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ ҲУҚУҚИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ .....	37-45
<i>Турсунов Ойбек</i> ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА .....	46-53
<i>Ismoilova Aziza Alisher qizi</i> MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY EKSPERTIZA AHAMIYATI VA HUQUQIY MUAMMOLARI .....	54-60
<i>Safarova Shaxlo Pulatovna</i> YANGI O'ZBEKISTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARISHLARINING INSON HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI .....	61-67
<i>Akbaralieva Mukhayo Karamatullo kizi</i> CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES .....	68-71
<i>Valijonov Daler Dilshodovich</i> PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PRACTICE OF EU MEMBERS .....	72-76
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i> DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLIIYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY MASALALARI .....	77-92
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI .....	93-103
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ...	104-109
<i>Рахмонова Мохичехра Нодирбек кизи</i> СУВЕРЕНИТЕТ И ЮРИСДИКЦИЯ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ .....	110-118
<i>Худайбердиева Шоҳиста Акмал қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК ВА	

ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР .....	119-129
---	---------

*Alijonov Ayubjon Qobiljon o'g'li*

RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH .....	130-136
---	---------

*Fayzulloyev Shohijaxon Jobirovich*

XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	137-141
--	---------

*Fayzullaeva Shakhlo Jumaniyaz kizi*

ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO .....	142-147
---	---------

*Raimov Elbek Bahodirovich*

OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI.....	148-152
---	---------

*Alieva Kamola Ravshanovna*

OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN .....	153-161
--	---------

*Juraeva Asal*

MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN .....	162-166
---	---------

*Rakhmonov Otabek*

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES .....	167-171
--	---------

*Айбек Якубов*

ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ .....	172-178
--	---------

*Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li*

MA'MURIY SUD Hujjatlarini ijroga qaratishning huquqiy tartibi .....	179-184
---	---------

#### **07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Elmuratov Ortiq Oltiboy o'g'li*

TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI.....	185-192
--	---------

*Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li*

URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI .....	193-199
---	---------

#### **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Imamov Javokhir*

LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN .....	200-203
--	---------

#### **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna*

"TAHDID" FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI .....	204-209
--	---------

#### **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Bawetdinov Mukhammeddin*

UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI ..... 210-215

*Соҳибова Зарнигор*

ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА) ..... 216-219

*Jonridova Sanobar Sherali qizi*

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLAR TADQIQI ..... 220-224

*Sharipova Mokhidil*

PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH

LANGUAGE..... 225-231

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Umarov Abdurasul Abdurahimovich*

PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D  
AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH ..... 232-237

*Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi*

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY  
QARASHLARI ..... 238-245

*Qalandarova Maxliyo*

MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH  
FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH ..... 246-251

*Чинқулова Гулмеҳра Баҳроновна*

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ  
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ..... 252-258

*Ibragimova Venera Azadovna*

TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI..... 259-264

*Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA  
IFODALANISHI ..... 265-269



**Received:** 10 August 2024  
**Accepted:** 15 August 2024  
**Published:** 25 August 2024

*Article / Original Paper*

## **LEGAL ISSUES OF THE RELATIONSHIP BETWEEN THE FUNCTIONS OF THE STATE AND PUBLIC FINANCES**

**Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li,**

PhD student at the Tashkent State University of Law

**E-mail:** eldorasadov001@gmail.com

**Abstract.** In this article, the author analyzed the categories related to government functions and public finances. The purpose of this study is to develop proposals and conclusions aimed at improving the functioning of government functions and public finances as a result of the study. The state function is the main line of activity arising from the functions of the state. Public finances are becoming important in these processes. The systematic and purposeful deployment of public finances in the performance of public functions leads to the development of the state's economy and the foundations of statehood. With the advent of the state, specific tasks have been set before it, the first place is to protect the population from external and internal threats, the second is to ensure the welfare of the population, the third is to ensure a strong social protection system and others. To fulfill these important tasks, it will be necessary to perform the functions of the state, in particular, the economic function, the social function, the function of financial control, etc. Therefore, for the correct formulation of the tasks of the state, it is important to regulate its functions and finances. Through a comparative analysis of the legislation of national and foreign states, historical and legal, systemic, logical, statistical and other methods, concepts of state functions and finance and proposals for them were developed. These proposals are used in scientific activities, lawmaking, law enforcement practice, interpretation and improvement of national legislation. The functions of the State are the main area of activity aimed at the implementation of state tasks. Public finance is a relationship related to the organization, distribution and use of monetary funds to ensure government tasks and functions.

**Keywords.** State function, state function, classification of state functions, economic function of the state, finance, public finance, state financial system, state financial system.

## **DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLİYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY MASALALARI**

**Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li,**

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Muallif mazkur maqolada davlat funksiyalari va davlat moliyasiga oid kategoriyalarni tahlil qilgan. Mazkur tadqiqotning maqsadi tadqiqot natijasida davlat funksiyalari va davlat moliyasini faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan taklif va xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Davlat funksiyasi davlatning vazifalaridan kelib chiquvchi asosiy faoliyat yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur jarayonlarda davlat moliyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat funksiyalarini bajarishda davlat moliyasining tizimli va maqsadli yo'lga qo'yilishi davlatning iqtisodiyoti va davlatchilik asoslarini rivojlanishiga olib keladi. Davlatning paydo bo'lishi bilan uning oldiga aniq vazifalar qo'yilgan bo'lib, mazkur vazifalar birinchi navbatda, aholini tashqi va ichki xavflardan himoya qilish, ikkinchi navbatda, aholi farovonligini ta'minlash, uchinchi navbatda kuchli ijtimoiy himoya tizimini ta'minlash va boshqa vazifalar turadi. Mazkur muhim vazifalarni bajarish uchun davlat funksiyalarini bajarishi lozim bo'ladi, xususan iqtisodiy funksiya, ijtimoiy funksiya, moliyaviy nazorat funksiya va boshqalar. Shu sababli, davlatning o'z vazifalarini to'g'ri yo'lga qo'yish uchun uning funksiya va moliyasini tartibga solish muhim hisoblanadi. Mazkur masalalarni milliy va xorijiy davlatlar qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish, tarixiy-huquqiy, tizimli, mantiqiy, statistik va boshqa usullar orqali o'rganish orqali davlat funksiyalari va moliyasi tushunchalari va unga doir takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur takliflar ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, milliy qonunchilik normalarini sharhlashda va takomillashtirishda qo'llaniladi. Davlat funksiyalari

davlat vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan asosiy faoliyat yo'nalishi hisoblanadi. Davlat moliyasi davlat vazifa va funksiyalarini ta'minlash uchun pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash hamda foydalanish bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi.

**Kalit so'zlar.** Davlat vazifasi, davlat funksiyasi, davlat funksiyasi tasnifi, davlatning iqtisodiy funksiyasi, moliya, davlat moliyasi, davlat moliya tizimi, davlat moliyaviy tizimi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N10>

**Kirish.** Davlat insoniyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan va uning tashkil topishiga asosiy sabab bu o'zaro manfaatli boshqaruvga bo'lgan kuchli zarurat hisoblanadi. Insonlar ijtimoiy himoya va ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida dastlabki davlatning elementlarini yuzaga keltirishadi. Boshqaruvchi va boshqariluvchilar o'rtasidagi shartnomaga muvofiq xalq davlatni boshqarish uchun o'z oralaridan mas'ul shaxslarni tayinlaydilar (saylaydilar) va unga ma'lum vazifa va majburiyatlarni yuklaydilar. Boshqaruvchi - mas'ul shaxslar ham boshqariluvchi – insonlarga ayrim burch va majburiyatlarni yuklaydilar. Mazkur shartnoma asosida davlat paydo bo'ladi va o'z o'zidan davlatning vazifalari so'ngra funksiyalari paydo bo'ladi.

Davlatning vazifa va funksiyalari bo'yicha turlicha qarashlar mavjud bo'lib, mazkur masalada olimlar turlicha yondashadilar. Masalan, X.T.Odilqoriyevning fikricha davlat funksiyalari bilan davlatning vazifalari tushunchalarini chalkashtirmaslik lozim, ular bir xil hodisalar emas. Davlat oldida uning turli taraqqiyot bosqichlarida har xil vazifalar turadi. Ushbu vazifalarni hal etish uchun davlat funksiyalari bajariladi. Vazifa bu jamiyat va davlat oldida turgan, o'z yechimini kutayotgan muammo yoki masala. Funksiya esa davlat faoliyatining yo'nalishi, ijtimoiy muammolarni hal etish yo'llaridir. Demak, funksiya hal etiladigan vazifalarga bog'liq holda paydo bo'ladigan davlat faoliyatining turidir. Tabiiyki, turli tarixiy vaziyatlarda davlat oldidagi vazifalar o'zgarib turadi. Shunga ko'ra, davlatning funksiyalari ham o'zgarishi mumkin[1, 107-b]. Bundan kelib chiqadiki, davlat vazifalari mavjud muammoga qaratilgan bo'lsa, davlat funksiyalari mana shu muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan ixtisoslashtirilgan faoliyati turi hisoblanadi. Masalan, aholini ish bilan ta'minlash, davlat organlari xizmatchilariga oylik to'lash va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalalarini hal qilish uchun davlat iqtisodiy funksiyani bajaradi.

Davlat boshqaruvi funksiyalari davlat funksiyasi bilan o'zaro bog'liq bo'lib, to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Ular ko'pgina o'xshash tomonlar bilan bir qatorda, o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir. Davlat funksiyasi uning siyosati, maqsadi, vazifalari va vakolatlari bilan belgilanadigan ma'lum bosqichdagi faoliyatining yo'nalishlaridir. Davlat o'z funksiyalarini ado etish uchun qonun chiqaruvchilik, ijro etuvchilik va sudlov faoliyatini olib boradi. Davlat o'z funksiyalarini amalga oshirishda ishontirish, rag'batlantirish va majbur etish usullaridan foydalanadi. Mazkur shakllar va usullarning qo'llash darajasi davlat funksiyalarining hajmi, davri, tizimi, xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Davlat funksiyalarini tasniflash esa davlatning mohiyatini chuqurroq anglashga, uning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaqqolroq namoyish etishga ko'maklashadi. Odatda davlat funksiyalari ikkiga, ichki va tashqi funksiyalarga bo'linadi. Davlat boshqaruvi davlat faoliyatining bir ko'rinishi hisoblanar ekan, unga davlat funksiyalari xosdir. Lekin, shu bilan birga, boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiquvchi

funksiyalar ham mavjuddir. Ko'pgina adabiyotlarda boshqaruv funksiyalari ijro hokimiyati (davlat boshqaruvi) organlarining funksiyasi tariqasida ko'rsatib o'tilgan[2, 19-21-b].

M.Najimov va Sh.Saydullayevlarning fikricha davlatning funksiyasi rivojlanishning ma'lum bir pog'onasida bo'lgan davlatning umumijtimoiy mohiyati, ahamiyati hamda xalq va jamiyat oldidagi burchidan kelib chiqadigan uning muayyan maqsad va vazifalarga erishishga qaratilgan faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir[3, 10-b]. Demak, davlatning turli yo'nalishlarda faoliyati mavjud bo'lib, faqatgina asosiy faoliyati turini davlat funksiyasi sifatida qarash mumkin ekan.

X.T.Odilqoriyev va I.T.Tulteyevlarning fikricha davlat funksiyalari quyidagi umumiy jihatlar bilan ta'riflanadi:

1. Davlat har bir funksiyasining mazmuni bir yo'nalishdagi davlat faoliyatidan tarkib topadi. Davlat faoliyatining o'xshash tomonlari ular qaysi ijtimoiy munosabatlarga daxldor bo'lsa, ana shu munosabatlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda bitta funksiyaga birlashtiriladi.

2. Muayyan faoliyat uchun maxsus tuzilgan ko'p sonli davlat organlarining (moliya vazirligi, xalq ta'limi vazirligi, prokuratura organlarining) funksiyalaridan farqli o'laroq, davlat funksiyalari uning faoliyatini butunlay qamrab oladi. Biroq, bu hol muayyan davlat funksiyalarini amalga oshiruvchi ayrim organlarning ahamiyatini kamaytirmaydi, chunki mazkur organlar ba'zida davlatning asosiy vazifalarini hal qilishda yetakchi rol o'ynaydi. Davlat funksiyalarini uning ayrim organlari funksiyalaridan farqlash lozim. Agar davlat funksiyalari u amalga oshiradigan faoliyatning asosiy, ijtimoiy ahamiyatga molik, butun davlat apparatining ishi bo'ysindirilgan yo'nalishlariga javob bersa, ayrim davlat organlarining funksiyalari hamisha ham davlatning ijtimoiy vazifalari va mohiyatini ifoda etavermaydi.

3. Davlat funksiyalari kompleks umumiy tusga ega. Ularga davlatning ichki va tashqi faoliyatidagi hal qiluvchi, hayotiy muhim yo'nalishlarga qaratilgan sa'y-harakatlari qamrab olinadi.

4. Davlat funksiyalarini maxsus vakolatli organlar yoki turli davlatlar organlarining tarkibiy tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan davlat faoliyatidan farqlash ham zarur. Masalan, jinoyat ishlarini tergov qilish, bojxona nazoratini amalga oshirish davlat faoliyatining turlari jumlasiga kiradi.

5. Davlat funksiyalari bu funksiyalarni ruyobga chiqarishning shakllari va uslublari bilan aynan bir narsa emas. Huquq ijodkorligi, ijroiya –farmoyish berish va huquqni muhofaza qilish faoliyati – hozirgi zamon davlati funksiyalarini amalga oshirishning asosiy huquqiy shakllari hisoblanadi. Davlat taraqqiyotining u yoki bu bosqichida o'z oldida turgan vazifalarga muvofiq ishontirish, rag'batlantirish yoki majbur etishning turli vositalaridan foydalanish mumkin. Davlatning aniq funksiyasi esa davlat hokimiyatini amalga oshirishning mazmuni, shakli va uslublari davlat faoliyatining muayyan yo'nalishi bilan o'zviy bog'liqdir[4, 104-105-b].

Tadqiqotchi tomonidan X.T.Odilqoriyev, M.Najimov, Sh.Saydullayev, I.T.Tulteyev, N.Saburov, A.Saidov, U.Tojixonov, M.X.Ashirbayeva, Z.M.Islomov, M.X.Ashirbayeva, Sh.R.Qobilov, A.Rahimova, M.Yo'ldoshev, Y.Tursunov., Sh.B.Bilolxo'jayeva, G'T.Xakimov, Adik Li, A.M.Hamidov, V.A.Bolgov, Yu.V.Shuvayeva, D.M.Stepanenko, L.A.Morozova va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

**Material va metodlar.** Davlat funksiyalari va davlat moliyasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va

amaliyoti hamda bank huquqida mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya, deduksiya va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqot natijalari.** Davlat funksiyalari davlatning asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat yo'nalishlari sifatida ta'riflanadi. Bu funksiyalar ma'lum bir davr va hududdagi sharoitlarni hisobga olgan holda shakllantiriladi va bajariladi.

N.Saburov va Sh.Saydullayevning ta'kidlashicha, davlat funksiyalari davlat faoliyatining eng muhim yo'nalishlarini ifodalaydi. Davlat o'z maqsadlariga erishish uchun muayyan vazifalarni hal qilishi kerak, bu esa o'z navbatida tegishli funksiyalarni amalga oshirishni talab etadi.

Muhimi, davlatning har qanday faoliyati funksiya sifatida qaralmasligi lozim. Faqat davlat vazifalariga bog'liq bo'lgan, bir maqsadga yo'naltirilgan va o'xshash faoliyat turlari birlashib, davlat funksiyasini tashkil etadi.

Davlat funksiyalarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ularni alohida ko'rib chiqish muhimdir:

1. Davlat funksiyalari, uning sinfiy va umuinsoniy mohiyatini aniqlashtiradi va ifoda etadi, shuningdek funksiyalarning mazmunida sinfiy, guruh, milliy va jamiyat a'zolarining xususiy manfaatlari o'z ifodasini topadi.

2. Davlat funksiyalarida uning mamlakat ichkarisidagi va xalqaro maydondagi har tomonlama amaliy faoliyati namoyon bo'ladi.

3. Davlat funksiyalari uning tarixiy taraqqiyotidagi maqsad va vazifalariga mos ravishda yuzaga keladi va rivojlanib boradi.

4. Davlat funksiyalarida uning rivojlanish xususiyatlari va qonuniyatlari, jamiyat hayotidagi ro'y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlar va islohotlar aks etadi[5, 32-33-b].

Bizning fikrimizcha, davlat funksiyalari davlatning asosiy belgilari va vazifalaridan kelib chiqadi. Masalan, davlatning asosiy vazifasi mazkur hududda yashayotgan aholiga xizmat ko'rsatish va yashash uchun munosib shart-sharoit yaratib berishi deb hisoblasak. Davlat mana shu vazifani amalga oshirish uchun ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalarni bajaradi.

A.Saidov va U.Tojixonovlarning fikricha davlat funksiyalari – davlatning muayyan umuinsoniy va sinfiy mohiyati hamda ijtimoiy maqomidan kelib chiqadigan maqsadlarga erishish uchun uning oldiga turgan vazifalarni amalga oshirishga oid faoliyatning asosiy yo'nalishlaridir.

Davlat funksiyalarining asosiy xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi: 1) funksiyalar davlatning mohiyati va ijtimoiy maqomi bilan bevosita bog'liqligi; 2) funksiyalar o'zgaruvchan tabiatga ega, davlatning shakllanishi, mustahkamlanishi va rivojlanishiga yo'naltirilgan[6, 190-191-b]. Davlatning funksiyalari vaqt o'tishi bilan o'zgaradi, chunki davlatning vazifalarini ham o'zgaradi. Masalan, hozirda davlatning ekologik funksiyasi paydo bo'ldi, chunki ekologiya yomonlashganligi sababli aholining toza hafodan nafas olish huquqi davlat vazifasi darajasigacha ko'tarildi.

Sh.Saydullayevning fikricha davlat funksiyalari – bu davlatning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan davlat faoliyatining asosiy (bosh) yo'nalishlaridir. Davlat

funksiyalarining quyidagi xususiyatlari mavjud: 1) davlat funksiyalarida mamlakat ichki va xalqaro maydondagi amaliy faoliyati namoyon bo'ladi, 2) davlat funksiyalari uning tarixiy taraqqiyotidagi maqsad va vazifalariga mos ravishda yuzaga keladi va rivojlanib boradi, 3) davlat funksiyalarida jamiyat hayotida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlar va islohotlarda aks etadi[7, 47-b].

V.A.Bolgov va Y.V.Shuvayevalarning fikricha davlatning funksiyalari faqat davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aks ettiradi, chunki davlat qilayotgan hamma narsa ham jamiyat uchun ahamiyatli emas. Funksiyalarning mohiyati bizga davlat o'z faoliyatini amalga oshirishda nimalarga e'tibor qaratishini, uning organlari qanday ishlashini ko'rsatadi[8, 169-170-b].

D.M.Stepanenkonning fikricha davlat funksiyalarining asosiy belgisi jamiyat hayotining obyektiv ravishda mavjud ehtiyojlari bilan belgilanadi. Davlatning jamiyatdagi mohiyati va ijtimoiy maqsadini jamlangan shaklda ifodalovchi, tegishli qonunchilik bilan tartibga solinadigan va muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega natijaga erishishga qaratilgan tegishli davlat faoliyati vositalari, usullari, shakllari va maqsadlari jamlanmasi hisoblanadi[9, 8-9-b].

Bizning fikrimizcha, davlat funksiyalari davlatning jamiyat va aholisining oldidagi burchidan kelib chiqadigan maqsadga qaratilgan asosiy faoliyat yo'nalishi hisoblanadi.

L.A.Morozovanning fikricha davlatning funksiyalari jamiyat rivojlanishining o'ziga xos tarixiy bosqichida uning faoliyatining asosiy ijtimoiy ahamiyatga ega yo'nalishlari hisoblanadi. Davlatning faoliyat yuritishi jarayonida hayotning turli sohalariga, ijtimoiy jarayonlar va aloqalarga maqsadli ta'sir ko'rsatadi. Davlat muayyan funksiyalarni bajarib, amalga oshirilayotgan islohotlar, o'zgarishlar va ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish orqali ijtimoiy jarayonlarning holatiga, ularning dinamikasi va yo'nalishiga ta'sir qiladi.

Muayyan funksiyalarni amalga oshirish jamiyat taraqqiyotini barqarorlashtirishi, ijodiy ta'sir ko'rsatishi va inqiroz holatini kuchaytirishi mumkin. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda davlatning funksiyalarini jamiyatni boshqarishda uning faoliyatining asosiy yo'nalishlari va mazmunini belgilab beruvchi (mexanizmini) ijtimoiy jarayonlar va munosabatlarga davlat ta'sirining maxsus mexanizmi sifatida belgilash mumkin.

Davlat funksiyalarining muhim belgilari quyidagilardan iborat: 1) davlatning ijtimoiy hayotning eng muhim sohalarida barqaror o'rnatilgan moddiy faoliyati 2) davlatning mohiyati va uning ijtimoiy maqsadi o'rtasidagi bevosita bog'liqlik, bu davlat faoliyatida amalga oshiriladi 3) davlat faoliyatining har bir tarixiy bosqichda yuzaga keladigan asosiy vazifalarni bajarish va maqsadlarga erishishga qaratilganligi 4) boshqaruvning o'ziga xos usullaridan, shu jumladan hokimiyat-majburiy usullardan foydalanish tufayli davlat funksiyalarini amalga oshirishning maxsus shakllari (huquqiy va tashkiliy)[10, 105-b].

M.Ashirbayevaning fikricha davlat funksiyasi – davlat faoliyatining asosiy yo'nalishinigina emas, balki davlatning bosh maqsadi va vazifalaridan, mohiyati va ijtimoiy missiyasidan kelib chiqib, jamiyat va mamlakat hayotining muhim sohalarida, asosiy jabhalarida amalga oshiriladigan faoliyatidir[11, 13-14-b].

Bundan tashqari, davlat funksiyalari turli mezonlar bo'yicha tasniflanadi. Mazkur masalada olimlarimiz turlicha yondashadilar. Xususan, X.T.Odilqoriyev va I.T.Tuliyevlarning fikricha davlat funksiyalarini o'rganishda ham tasniflash uslubidan samarali foydalaniladi. U yoki bu funksiyalarni muayyan bir turkumga, guruhga kiritish imkonini beruvchi tasniflash mezonlari, ya'ni belgilari (yig'indisi) turli xususiyatga ega. Masalan, davlat faoliyatining

obyektlari va sohalari, xududiy ko'lamlari, ijtimoiy munosabatlarga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatish usuli, vazifalarning mazmuni bir-biridan farq qiladi. Davlatning funksiyalarini amal qilish vaqti bo'yicha doimiy va vaqtinchalik funksiyalarga bo'lish mumkin. Asosiy va asosiy bo'lmagan funksiyalar. Davlatning ichki va tashqi funksiyalari eng keng tarqalgan usulidir.

Davlatning ichki funksiyalariga – uning jamiyat ichki hayotini boshqarish bo'yicha faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir. Ichki funksiyalarni tasniflash davlat faoliyatining sohalari bo'yicha amalga oshiriladi. Boshqaruv shakllari yoki davlat qurilishidan qat'iy nazar har bir davlat bir qator asosiy iqtisodiy, ijtimoiy, muhofaza va nazorat qilish vazifalarini hal etadi. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda atrof-muhitni muhofaza qilish barcha davlatlarning eng muhim vazifasidir. Davlat faoliyatining mazkur sohalariga muvofiq uning ichki funksiyalari iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy nazorat, huquqiy tartibotni ta'minlash va tabiatni muhofaza qilish funksiyalariga bo'linadi.

Davlatning tashqi funksiyalariga – davlat xalqaro maydonda olib boradigan faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir. Bundan faoliyat boshqa davlatlar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish va ularni saqlash hamda ehtimol tutilgan tashqi tajovuzdan mamlakatni mudofaa qilishni ta'minlashdan iborat davlatning tashqi vazifalarini hal etishga qaratilgan. Shunga ko'ra, davlatning tashqi funksiyalari: jahon hamjamiyatining barcha davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik va tashqi hujumlardan mamlakatni mudofaa qilish kabi ikki asosiy funksiyaga bo'linadi[12, 107-112-b].

Bizning fikrimizcha, davlat funksiyalarini tasniflashda avvalo davlatning maqsadi va umumiy vazifasidan kelib chiqib, tasniflash lozim. Masalan, davlatning asosiy maqsadi shu hududda yashayotgan barcha fuqarolarning manfaatlaridan kelib chiqib, ularga sifatli xizmat ko'rsatish. Bundan tashqari, davlatning paydo bo'lishi asosiy sabablardan biri bu odamlarning umumiy tashqi dushmanlardan himoyalanih, xavfsiz yashash, mol-mulkining xavfsizligini ta'minlash bo'lgan ehtiyojlaridir.

M.Najimov va Sh.Saydullayevlarning fikricha davlatning ichki funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin: Iqtisodiy funksiya, Ijtimoiy funksiya, Siyosiy funksiya, Huquq tartibotni ta'minlash funksiyasi, Ekologik funksiyasi va boshqa funksiyalar. Davlatning tashqi funksiyasiga quyidagilar kiradi: boshqa davlatlar bilan hamkorlik funksiyasi[13, 14-15-b].

N.Saburov va Sh.Saydullayevlarning fikricha davlat funksiyalari faoliyat doirasi bo'yicha ichki va tashqi funksiyalarga bo'linadi. Ichki funksiyalar davlatning ichki vazifalarini yechishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, davlatning jamiyatga ta'sirining faollik darajasini ko'rsatadi. Tashqi funksiyalar esa xalqaro-huquqiy munosabatlarning subyekt sifatida ishtirok etayotgan davlat, davlatlararo miqyosidagi vazifalarni hal qilish bilan bog'liqdir.

Davlatning ichki funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin: iqtisodiy funksiya, ijtimoiy funksiya, siyosiy funksiya, huquqiy tartibotni ta'minlash funksiyasi, tinchlik va totuvlikni ta'minlash funksiyasi, ekologik funksiyasi va boshqa funksiya. Davlatning asosiy tashqi funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin: boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik funksiyasi, mudofaa funksiyasi. Davlat funksiyalari amal qilish davomiyligi bo'yicha doimiy va muvaqqatga bo'linadi. Amalga oshirishning huquqiy shakllari bo'yicha davlat funksiyalarini quyidagicha tasniflash mumkin: huquq ijodkorligi, ijro etish va huquqni muhofaza qilish[14, 34-39-b].

Mazkur olimlar davlat funksiyalarini to'g'ri va tizimli tasniflashgan. Bizning fikrimizcha, davlatning funksiyalarini jamiyat sohalaridan kelib chiqib, tasniflash lozim, masalan moliyaviy funksiya, moliyaviy nazorat funksiyasi, soliq solish funksiyasi va boshqalar.

A.Saidov va U.Tojixonovlarning fikricha davlatning funksiyalari, birinchidan faoliyat doirasiga ko'ra (ichki va tashqi), ikkinchidan harakatning davomiyligiga ko'ra (doimiy va muvaqqat), uchinchidan ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra (umumiy va asosiy bo'lmagan) to'rtinchidan amalga oshirishining huquqiy shakllariga ko'ra tasniflash mumkinligini qayd etishgan[15, 193-b].

X.T.Odilqoriyevning fikricha davlat funksiyalari – davlatning yaxlit, siyosiy, institutsional, hududiy jihatdan yagona va ayni vaqtda, differensiallashgan faoliyat yo'nalishidir. Shuning uchun, davlat funksiyalarini ichki va tashqi funksiyalarga ajratish keng tarqalgan[16, 108-109-b].

Z.M.Islomovning fikricha davlat funksiyalari davlat ichki va tashqi faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib, ularda davlatning sinfiy hamda umuminsoniy mohiyati va ijtimoiy vazifasi o'zining aniq ifodasini topadi. Davlatning biron-bir funksiyasi ijtimoiy hayotning ichki yoki tashqi sohasida amalga oshirilayotganidan, ichki siyosat yoki tashqi siyosiy vazifalarni bajarishga xizmat qilayotganidan kelib chiqib, ichki va tashqi funksiyalarga bo'linadi. Davlatning ichki funksiyasi bu masalan iqtisodiy, ekologik, madaniyatni, fan va ta'limni rivojlantirish funksiyalaridir. Mamlakatni mudofaa qilish, tinchlikni ta'minlash va jahon tartibotini qo'llab-qo'vvatlash va hokazolar tashqi funksiyalarga kiradi. Ayni mahalda, davlat funksiyalarini ichki va tashqiga bo'lishni mutlaqlashtirmaslik lozimligini nazarda tutish zarur. Chunki, real hayotda ular o'zviy bog'liqdir[17, 304-b].

M.Ashirbayevaning fikricha davlat funksiyalarining quyidagi turlarga ajratadi: 1) jamiyat va davlat oldida turgan vazifalar mazmuniga ko'ra: yaratuvchanlik funksiyasi va himoyalash, qo'riqlash funksiyasi; 2) davlat faoliyati, davlatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshirish bo'yicha: ichki va tashqi funksiyalar; 3) davlat faoliyatini amalga oshirish metodlari bo'yicha: ishontirish va majburlash vositasida amalga oshiriladigan funksiyalar; 4) davlat faoliyati yo'nalishlari bo'yicha: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy, muhofazalash va boshqa funksiyalar[18, 13-14-b].

**Tadqiqot naijalari tahlili.** Davlatning iqtisodiy funksiyasi va moliyaviy faoliyati uning shakllanishi bilan bir vaqtda paydo bo'lgan bo'lib, ular o'zaro chambarchas bog'liqdir. Iqtisodiy funksiya davlatning iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va boshqarish faoliyatini o'z ichiga oladi. Bu faoliyatning miqdoriy o'lchovi va hisobi esa davlat moliyasi orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, davlatning iqtisodiy va moliyaviy nazorat funksiyalari bir-birini to'ldiradi va qo'llab-quvvatlaydi. Iqtisodiy munosabatlar tovar, ish va xizmatlar ko'rinishida namoyon bo'lsa, moliya esa bu munosabatlarning qiymatini, narxini, hisobini va muomalasini ifodalaydi. Bu ikki funksiya birgalikda davlatning iqtisodiy hayotni samarali boshqarish va nazorat qilish imkoniyatini ta'minlaydi, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish va moliyaviy barqarorlikni saqlab turishga xizmat qiladi.

Davlatning iqtisodiy funksiyasi bo'yicha olimlar turlicha yondashadilar. Xususan, N.Saburov va Sh.Saydullayevning fikricha davlatning iqtisodiy funksiyasi – bu davlat tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish borasida asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, boshqaruvni amalga oshirish hamda tartibga solib turishdan iboratdir. Bundan tashqari, davlat budjetini shakllantirish, jamiyatning iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini aniqlash, turli xil mulk

shakllarini tenglik sharoitida amal qilinishini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab qo'vvatlash kabilar ham davlatning iqtisodiy sohadagi funksiyasi doirasiga kiradi[19, 34-b].

Mazkur olimlar davlat iqtisodiy funksiyasini keng ko'lamda sharhlab, davlat budjetining shakllanishini ham qamrab olishiga urg'u berishadi.

X.T.Odilqoriyev va I.T.Tultiyevlarning fikricha iqtisodiy funksiya davlat tomonidan mamlakat iqtisodiyotni eng maqbul sharoitda rivojlantirishning strategik yo'nalishlari ishlab chiqilishi va muvofiqlashtirilishida o'z ifodasini topadi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida amal qiluvchi huquqiy davlatda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ma'muriy usullar vositasida emas, asosan iqtisodiy uslublarda amalga oshiriladi. Bunday davlat uchun mulkdorning erkinlik va mustaqillik huquqi xos bo'lib, bu huquqlar ijtimoiy boyliklarni (moddiy ne'matlarni) yaratuvchilarning ham, ularni iste'mol qiluvchilarning ham bir xilda tengligi va mustaqilligini ta'minlaydi.

Davlat tomonidan tartibga solishning ikki asosiy iqtisodiy uslubi mavjud: 1) muayyan va bir muncha qattiq soliq siyosati, bunday siyosat davlatga o'z oldiga turgan ijtimoiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish, shuningdek jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarini yanada mutanosib rivojlantirish maqsadida milliy daromadning muayyan qismini qayta taqsimlash imkonini beradi; 2) iqtisodiyotning butun jamiyat uchun eng ko'p foyda ko'riladigan ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish orqali xo'jalik yuritish uchun eng ma'qul shart-sharoitlarni yaratish[20, 107-108-b].

Mazkur olim davlatning iqtisodiy usul sifatida aholining iqtisodiy faoliyatiga ta'sir etish usullarini to'g'ri ifodalagan. Davlat mazkur iqtisodiy faoliyatga soliq solish orqali o'zining moliyaviy daromadini shakllantiradi. Shu orqali, milliy daromad ya'ni davlat budjetini shakllantiradi. Ko'rib turganimizdek, iqtisodiy munosabatlar birlamchi bo'lib, mazkur munosabatlarning pul, soliq va hisob o'lchamlari moliya instrumentlari bilan tartibga solinadi.

Z.M.Islomovning fikricha iqtisodiy funksiyalar a) mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining umumiy dasturini belgilash; b) iqtisodiyotning eng ustuvor tarmoqlarini rag'batlantirish; v) tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish; g) aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha yangi siyosatni shakllantirish hisoblanadi. Lekin, shuni ham aytish kerakki, faqat maqsad va vazifalarni, hatto funksiyalarni aniqlashning o'zigina muhim emas. Ularga og'ishmay amal qilish, shu vazifa va funksiyalarni bajarish undan ham muhimroq. Shu munosabat bilan mustaqillik yillarida iqtisodiyot sohasida chuqur o'zgarishlar sodir bo'lganligini qayd etgan: birinchidan, mulkka bo'lgan munosabatda tub o'zgarishlar yuz berdi. Xususiylashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish dasturlarini amalga oshirish hisobiga ko'p ukkladli iqtisodiyot tarkib topdi, ikkinchidan, xo'jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik usullari barham toptirildi, bozor omillari kengroq joriy etilmoqda, uchinchidan, bozor infratuzilmasi shakllantirildi, yangi banklar, soliq tizimlari tashkil etildi, fond va mol-xom ashyo birjalari, lizing kompaniyalari tarmog'i tashkil etildi, qimmatli qog'ozlar bozori shakllantirilmoqda, to'rtinchidan, o'z milliy pul tizimimiz yaratildi, beshinchidan, iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi, inflatsiya darajasi keskin pasaydi, ishlab chiqarishning pasayishi to'xtatildi, oltinchidan, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar sodir etilmoqda, respublikaning issiqlik-energetika mustaqilligiga erishildi, o'zimiz ishlab chiqarayotgan tayyor mahsulotlar salmog'i ortdi, sanoat va qishloq xo'jaligining qat'iy yangi tarmoqlari yaratildi [21, 306-307-b].



Bizning fikrimizcha, Har bir davlat o'z rivojlanish strategiyasini mustaqil ravishda belgilaydi. Bu jarayonda turli iqtisodiy tizimlarning afzalliklari va kamchiliklarini chuqur tahlil qilib, o'ziga mos keluvchi yo'nalishni tanlaydi. Bu bozor iqtisodiyoti, davlat boshqaruviga asoslangan iqtisodiyot yoki aralash iqtisodiy tizim bo'lishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti global miqyosda o'z samaradorligini isbotlagan tizim hisoblanadi. U mulkchilik shakllarining xilma-xilligiga, iqtisodiy faoliyat erkinligiga hamda talab va taklif qonuniyatlariga asoslanadi. Bunday tizimda har bir fuqaro o'z iqtisodiy faoliyati orqali mamlakatning iqtisodiy rivojiga hissa qo'shadi.

Bu faoliyat natijasida davlat moliyasi, jumladan davlat budjeti shakllanadi. Yig'ilgan mablag'lar esa davlatning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini amalga oshirishga yo'naltiriladi. Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti fuqarolar faoliyati va davlat vazifalarini bajarish o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi.

M.Najimov va Sh.Saydullayevlarning fikricha iqtisodiy funksiya - bu davlat tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish borasida asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, boshqarib turish hamda tartibga solib turishdan iboratdir. Bundan tashqari davlat budjetini shakllantirish, jamiyatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini aniqlash, turli xil mulk shakllarini tenglik sharoitida amal qilinishini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlashdan iborat[22, 14-b].

Davlatning iqtisodiy funksiyasi mamlakat taraqqiyoti va aholi ehtiyojlarini qondirish uchun iqtisodiy faoliyatning barcha turlarini qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Bu funksiya orqali davlat ishlab chiqarish, tovar, ish va xizmatlar bozorini shakllantirish uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

Bu jarayonda davlatning iqtisodiy siyosati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki aynan shu siyosat davlatning iqtisodiy rivojlanish yo'nalishini belgilaydi va uning amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Shu sababli, yaqin tarixdagi iqtisodiy tajribalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy rivojlanishning bozor iqtisodiyoti (kapitalizm) yo'lini tanladi va shu yo'nalishda siyosat olib bordi. Xususan, bozor iqtisodiyotiga xos qoidalar sifatida, mulkning xilma-xil shakllariga, bozordagi talab va taklifdan kelib chiqib, tovar (ish) ishlab chiqarilishi, raqobat narx va sifatga ta'sir qilishi va tadbirkorlikning barcha turlari bilan shug'ullanishga ruxsat berildi.

Shu sababli, O'zbekistonda 1991-yil 19-noyabrdagi "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi qonuni hamda 1991-yil 15-fevralda "O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Mazkur iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqib, davlat moliyaviy siyosatini ishlab chiqadi. Davlatning moliyaviy siyosati bu rivojlanishning ma'lum davrida moliyaviy faoliyatida qanday usul va vositalarni tanlashi va qo'llashiga doir tanlovi hisoblanadi.

Moliyaviy munosabatlar iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi, chunki iqtisodiy faoliyatdan moliyaviy natijalar, xususan pul, daromad, narx va hisob-kitoblar kelib chiqadi. Shu asnoda, davlat mazkur moliyaviy munosabatlarni tartibga solish uchun moliyaviy siyosat, moliya tizimi, moliyaviy nazorat funksiyalarini ishlab chiqadi.

Dastlab, davlatni boshqarish va umumiy xarajatlarni qoplash uchun davlat soliq va boshqa majburiy to'lovlarni joriy etadi. Mazkur to'lovlar aholining yashash uchun shug'ullanadigan faoliyati, daromadi yoki mol-mulklariga nisbatan qo'llaniladi. Mazkur

to'lovlar majburiy bo'lib, aholining soliqlarni o'z vaqtida budjetga to'lashini nazorat qilish uchun soliq nazorati instituti vujudga keladi, chunki aholi soliqlarni odatda ixtiyoriy to'lamaydilar. Bundan tashqari, davlatning ichkarisi va tashqarisiga tovar (ish, xizmat) harakatini nazorat qilish uchun bojxona nazorati vujudga keladi. Shuningdek, aholidan undirilgan soliq va bojxona to'lovlari davlat budjetida jamlanadi va davlatning harajatlari yo'nalishiga qarab taqsimlanadi. Mazkur jarayonlar budjet nazorati orqali ta'minlanadi. Shu tarzda kredit va hisob-kitoblar tizimini tartibga solish uchun bank nazorati vujudga kelgan.

Davlatning iqtisodiy funksiyasi uning moliyaviy funksiyasini yuzaga keltiradi. Moliyaviy funksiya davlatdagi barcha moliyaviy munosabatlarni tartibga solishni o'z ichiga oladi va keng qamrovli moliyaviy nazorat tizimini shakllantiradi. Bu funksiya quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

1. Soliqlar va majburiy to'lovlarni joriy etish hamda ularning undirilishini nazorat qilish;
2. Davlat budjetining daromadlari va xarajatlarini kuzatib borish;
3. Bojxona bojlari va boshqa chegaraviy to'lovlarni belgilash va nazorat qilish;
4. Kredit tizimi, narxlar siyosati va hisob-kitoblar tizimini shakllantirish;
5. Bank faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;
6. Sug'urta tizimini joriy etish va uning faoliyatini nazorat qilish.

Bu keng qamrovli faoliyat yig'indisi davlatning moliyaviy nazorat funksiyasi deb ataladi. Mazkur funksiya davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va moliyaviy tizimning samarali ishlashini kafolatlashga xizmat qiladi.

Sh.R.Qobilovning fikricha moliya iqtisodiyot doirasida o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator vazifalarni bajaradi: 1) moliyaning iqtisodiy jarayonlarni, tadbirlarni moliyaviy ta'minlash va unga xizmat ko'rsatish vazifasini bajaradi; 2) moliyaning taqsimlovchi vazifasi. Bu moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan yalpi milliy mahsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadni tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, iqtisodiyot tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish sohaları, mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi. Bundan milliy daromadning bir qismi korxona va aholi daromadlaridan turli xil soliqlar olish, renta va bojxona to'lovlari, aksiz yig'inlari kabilar orqali davlat qo'lida to'planadi. O'z qo'lida to'plangan milliy daromadning katta qismini davlat moliya vositasida aholining ijtimoiy madaniy ehtiyojlariga (uy joy qurilishi, tibbiyot xizmati, maorif, nafaqa, stipendiya va h.k.), daromadlar darajasini ushlab turishga, milliy mudofaaga, atrof-muhitni muhofaza qilish va shu kabilarga sarflaydi; 3) moliyaning rag'batlantiruvchi vazifasi, birinchidan, yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash jarayonida, ikkinchidan, pul fondlarini tashkil qilish va sarflash mexanizmi vositasida amalga oshiriladi. Ikki holda ham moliya ishlab chiqarish samaradorligiga, uning pirovard natijasiga, mahsulot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi; 4) moliyadan ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol ustidan nazorat qilish vositasi sifatida foydalaniladi. Moliyaviy nazorat korxona (firma)larning moliya intizomiga rioya qilish uchun moddiy javobgar bo'lish tizimi, turli soliqlar undirib olish va mablag' bilan ta'minlash tizimi orqali amalga oshiriladi[23, 411-b].

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat va bozor munosabatlarini boshqarishning muhim instrumenti moliya bo'lib, u jamiyatda pul mablag'lari fondlarini shakllantirishni, taqsimlashni va foydalanishni ifodalaydi. Jamiyatning daromadi – bu YAIMning pulda hisoblangan qiymatidir. Demak, moliya – yalpi milliy mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash, pul mablag'lari fondlarini yuzaga keltirish va ulardan foydalanishning

iqtisodiy instrumentidir. Moliyaning mohiyati uni taqsimlash, rag'batlantirish, ijtimoiy, fiskal va nazorat vazifalarini bajarishda namoyon bo'ladi.

Moliyaviy tizim ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar nuqtayi nazaridan markazlashgan, markazlashmagan hamda uy xo'jaligi moliyalaridan tashkil topadi. Markazlashgan moliya davlat budjet tizimini, krediti, ijtimoiy budjetdan tashqari fondlarni, mulkiy va shaxsiy sug'urta fondlarini o'z ichiga oladi. Markazlashmagan moliya o'z tarkibiga mamlakat moliya resurslarining ko'p qismini o'zida shakllantiruvchi turli mulk shaklidagi korxona va firmalarni, ya'ni alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini hal etishga mo'ljallangan moliya resurslarini oladi[24, 409-410-b].

A.Rahimova va E.Xojiyevlarning fikricha davlat o'z oldiga turgan vazifalarni bajarishga "moliya" deb ataluvchi iqtisodiy richagni qo'llaydi va shu bilan bog'liq holda moliyaviy faoliyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o'z moliyaviy tizimiga va milliy daromadiga ega bo'ldi. Bu iqtisodiy mustaqillikning muhim belgisidir. Mamlakatimiz moliyasi iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo'lib, uning rivojlanishi moliyaviy yuksalishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Milliy daromad iqtisodiy taraqqiyotning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Uning o'sishi sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarning uzluksiz rivojlanishi bilan bog'liq. Moliyaviy tizimni mustahkamlash murakkab, ammo hal qiluvchi ahamiyatga ega vazifadir. Bu jarayon mamlakatni himoya qilish, madaniy va xo'jalik rivojlanishini ta'minlash hamda bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shunday qilib, mustaqil va barqaror moliyaviy tizim O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi va rivojlanishining poydevori bo'lib xizmat qiladi. Bu tizimni takomillashtirish va mustahkamlash davlatning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Moliya lotincha so'zdan olingan bo'lib, "pul to'lovlari" degan ma'noni anglatadi. Lekin, moliyani pul to'lovlari deb tushuntirishning o'zi yetarli emas. Chunki, bu to'lovlar bir tomondan budjetga soliq, yig'im va boshqa majburiy to'lovlarni o'tkazishni; ikkinchi tomonda esa davlat budjeti va boshqa jamg'armalar hisobidan mablag'lar berishni; banklar orqali pul to'lovlari (hisob-kitoblar)ni amalgi oshirish singari pul harakatini ifoda qiladi hamda bu harakatlarda ijtimoiy munosabatlar aks etadi.

Davlat moliyasi – bu davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni bajarilishini moddiy ta'minlash maqsadida pul mablag'lari jamg'armalarini to'plash, taqsimlash va foydalanish bo'yicha bo'ladigan pul munosabatlari tizimidir.

Mamlakatning moliya tizimi bu davlat, ma'muriy hududiy tuzilmalar, korxonalar, tashkilotlar, xalq xo'jaligi sohalarining pul mablag'lari jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va foydalanishning shakl va usullarining tizimidir[25, 9-b].

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, davlat iqtisodiy funksiyasini davlat moliyasiz bajara olmaydi. Chunki, iqtisodiy munosabatlardan ko'zlangan maqsad daromad bo'lib, mazkur daromadni xisoblash va undirish jarayonlari davlat moliyasi bilan bog'liqdir.

Shuningdek, A.Rahimova va E.Xojiyevlarning fikricha O'zbekiston Respublikasining moliyaviy tizimini quyidagi institutlar tashkil qiladi: O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi. Davlat budjeti – bu iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, uning yordamida markazlashgan pul mablag'lari jamg'armalari tashkil etiladi. Davlat budjeti yordamida har yili mamlakat milliy daromadining yarmidan ko'pi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Budjetdan tashqari ijtimoiy jamg'armalar. Mazkur jamg'armalar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan majburiy to'lovlar va ajratmalardan tashkil topadi. Shu bilan birga, budjetdan tashqari jamg'armalar ixtiyoriy a'zolik to'lovlaridan ham tashkil topadi. Bu jamg'armalarni tashkil etishdan asosiy maqsad – davlat moliyaviy mablag'larining kengayishini va ulardan maqsadga muvofiq foydalanishni ta'minlashdir.

Sug'urta. Jismoniy va yuridik shaxslarning majburiy va ixtiyoriy badallaridan tashkil topgan sug'urta jamg'armalaridan yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararlarni to'liq yoki qisman qoplash maqsadida foydalaniladi. Sug'urta jamg'armalarini tashkil etishdan asosiy maqsad – tabiiy ofatlar yoki boshqa favqulodda holatlar yuz berganda yetkazilgan zararni qoplashdan iborat.

Kredit. Bu vaqtinchalik foydalanilmayotgan pul va boshqa mablag'larni ma'lum muddat va shartlar asosida qaytarish sharti bilan qarzga berish jarayonidir.. Kredit birinchidan, pulga tenglashtirilgan to'lov mablag'larini (masalan, veksel, chek, sertifikat) yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik muomalasiga jalb qiladi, ikkinchidan, u vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni harakatdagi kapitalga aylantiradi, uchinchidan, qarz berish orqali pul mablag'larini turli tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlash bilan ishlab chiqarish resurslarining ko'chib turishini ta'minlaydi, to'rtinchidan qarz berish, qarzni undirish mablag'lari orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Kredit munosabatlari pul egasi bilan qarz oluvchi o'rtasida bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin. Shunga qarab, kreditning: tijorat, bank, iste'molchi, davlat va xalqaro kredit shakllari mavjud.

Korxona, muassasa va tashkilotlarning moliyasi – moliya tizimining boshlang'ich bo'g'inlaridan biri bo'lib, uning asosini tashkil qiladi. Korxonalar moliyasi – moddiy ishlab chiqarish bilan, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tarqatish bilan bevosita bog'liq bo'lib, milliy daromadni tashkil qiladi hamda bu moliya tizimi yordamida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi[26, 9-12-b].

Bizning fikrimizcha, davlat moliya tizimi va davlat moliyaviy tizimi ayni tushunchalar bo'lib, har ikkalasi ham davlat moliyasining tarkibiy institutlar jamini ifodalaydi.

M.Yo'ldoshev va Y.Tursunovlarning fikricha moliya deganda davlat va uning hududiy bo'limlarining, korxona va tashkilotlarning kengaytirilgan taqror ishlab chiqarishni ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari hisobidan davlat fondini tashqil qilish, taqsimlash va iste'mol qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni tushunamiz. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati uning taqsimot va nazorat funksiyalari orqali namoyon bo'ladi.

O'zbekiston moliya tizimini to'liq iqtisodiy kategoriya sifatida o'zaro bo'lgan boshqa bo'g'inlarsiz sira ham tasavvur qilib bo'lmaydi. O'zbekiston moliya tizimiga quyidagi bo'g'inlar kiradi: 1)O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti, Qorqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyat va mahalliy budjetlar 2)Budjet tashqari maqsadli fondlar 3)Korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar, muassasalar va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari moliyasi 4)Mulkiy va shaxsiy sug'urta 5)Kredit (davlat va bank tomonidan beriladigan)[27, 9-b].

Bizning fikrimizcha, davlat moliya tizimi institutlari vaqt o'tishi takomillashib, yangi institutlar paydo bo'lmoqda, masalan, qimmatli qog'ozlar bozori moliyasi hamda moliyaviy xizmatlar moliyasi kabi.

Sh.B.Bilolxo'jayeva va G.T.Xakimovlarning fikricha moliya pul jamg'armalarining yig'indisi. Moliya – davlatning, mahalliy hududlarning, xo'jalik yurituvchi subyektlarning,

jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash, qayta taqsimlash va foydalanish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning yig'indisini ifodalaydi. Uning taqsimlash funksiyasi – moliyalashtirish subyektlarining kerakli moliyaviy resurslar bilan ta'minlash maqsadida milliy daromadni taqsimlashni ifodalanadi. Kontrol (nazorat) – pul jamg'armalarini taqsimlash va ulardan foydalanish ustidan kontrolni amalga oshirishni ifodalaydi. Tartibga solish funksiyasi esa – davlat moliya orqali iqtisodiy munosabatlarga ta'sir etishini bildiradi.

Moliya turli bo'g'inlardan tarkib topgan bo'lib, ularning har biri davlat pul jamg'armalarini yaratish, taqsimlash va ulardan foydalanish sababi bo'yicha yuzaga keladigan muayyan ijtimoiy munosabatlar doirasini aks ettiradi va shu boisdan ular bir-biridan farq qiladi. Shu bilan birga, ular muayyan umumiy xususiyatlarga ega bo'lib, bu ularni alohida nisbatan ajratilgan guruhlariga moliya institutlariga birlashtirish uchun imkon beradi. Turli moliyaviy bo'g'inlar, majmui, O'zbekiston Respublikasi moliya tizimini tashkil etadi. Moliya tizimi budjet tizimi, budjet tashqari maqsadli jamg'armalar, kreditlash, sug'urta va yuridik shaxslarning moliyasidan iborat[28, 6-b].

Bizning fikrimizcha, moliyaning mohiyati uning pul jamg'armalarini to'plash funksiyasi, taqsimlash funksiyasi hamda nazorat qilish funksiyalarida namoyon bo'ladi.

Adik Lining fikricha moliya – umumdavlat ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tizimidir. O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi quyidagi bo'g'inlardan tarkib topgan: davlat budjeti; davlat maqsadli jamg'armalari va budjetdan tashqari jamg'armalar; xo'jalik yurituvchi subyektlar va iqtisodiyot sohalari moliyasi; kredit (davlat krediti va bank krediti); mulkiy va shahsiy sug'urta[29, 6-b].

A.M.Hamidovning fikricha O'zbekiston Respublikasining moliyasi – O'zbekiston Respublikasining pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va undan foydalanish hamda aholining ijtimoiy-madaniy talablarini qondirishdagi, respublika iqtisodiyoti, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy rivojlanishni ta'minlovchi moliyaviy (iqtisodiy) munosabatlar hisoblanadi[30, 8-b].

Bizning fikrimizcha, moliya bu pul va daromad bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi. Davlat moliyasi esa davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, pul mablag'larni jamlash va taqsimlashga doir moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Moliya deganda davlat, xo'jalik yurituvchi subyektlar, uy xo'jaliklari tomonidan milliy ehtiyojlarni qondirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, aholining ijtimoiy ehtiyoj va ehtiyojlarini qondirish maqsadida mablag'larni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida vujudga keladigan pul-iqtisodiy munosabatlar tushunilishi kerak.

Davlat moliyasi - bu davlat va mahalliy moliyaning kombinatsiyasi. Ular davlat va mahalliy ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan. Davlat moliyasida xarajatlar daromatlarni aniqlaydi, ularni shakllantirish uchun asosan majburlash usullari qo'llaniladi (masalan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash va yig'ish).

Xususiy moliya - bu yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan pul mablag'lari va ularning maqsadi daromad (foyda) olish va shaxsiy ehtiyojlarni qondirishdir. Xususiy moliya sohasida daromad xarajatlarni belgilaydi va ushbu mablag'larni to'ldirishning asosiy usuli iqtisodiy usullardir[31, 25-b].

Moliyani tushunishda uni ommaviy va xususiy moliyaga bo'lish juda to'g'ri yondashuv hisoblanadi. Chunki, davlat paydo bo'lmasdan oldin ham odamlar o'rtasida tovar aylanmasi

mavjud bo'lgan, ular shartli naturada moliyaviy hisob-kitob qilingan. Mazkur jarayonlar xususiy moliyaning ildizlari hisoblanadi. Keyinchalik davlat paydo bo'lgandan so'ng, davlat ehtiyojlari uchun davlat moliyasi paydo bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi moliya tizimini tegishli pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanishga hissa qo'shuvchi asosiy moliya institutlarining yig'indisi sifatida belgilash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi o'z tuzilmasiga ega bo'lib, hozirgi vaqtda quyidagi bo'g'inlardan iborat: a) budjet tizimi; b) davlat maqsadli va budjetdan tashqari fondlar; v) davlat krediti; d) davlat sug'urta fondlari; e) turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar, birlashmalar, tashkilotlar, muassasalar, iqtisodiyot tarmoqlari moliyasi[32, 34-35-b].

Bizning fikrimizcha, moliya tizimi pul mablag'larning muomalasi jarayonidagi o'ziga xos bo'lgan o'xshash bo'lgan munosabatlarning yig'indisi bo'lgan moliya institutlaridan iboratdir. Masalan, kredit munosabatlari bo'sh turgan mablag'larni ma'lum muddatga va foiz yoki foizsiz ko'rinishda foydalanishga berishga doir bo'lgan jami munosabatlar, qarz, ssuda, mikroqarz va boshqalarni qamrab oladi.

Yuridik adabiyotlarda moliyaning taqsimlash funksiyasi qo'shimcha ravishda ajratilgan bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, moliya orqali umumiy ijtimoiy mahsulot taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi, buning natijasida mablag'lar davlat ixtiyoriga tushadi.

Ba'zi hollarda tartibga solish, barqarorlashtiruvchi va nazorat qilish funksiyalari ham ajralib turadi. Tartibga solish funksiyasi deganda davlatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoniga aralashuvi va ijtimoiy zaruriy nisbatlarni, iqtisodiyot va jamiyatning rivojlanish tendensiyasini moliyaviy vositalar (soliqlar, davlat kreditlari va boshqalar) orqali tartibga solish tushuniladi.

Barqarorlashtiruvchi funksiyaning mohiyati fuqarolarga davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda moliyadan samarali foydalanish bilan kafolatlangan barqaror iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar bilan ta'minlashdan iborat.

Moliyaning nazorat funksiyasi davlat mablag'laridan foydalanishni amalga oshirish uchun shakllantirilgan maqsad va vazifalarga aniq muvofiqligini, moliyaviy-huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari tomonidan moliyaviy qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlaydigan vositalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi[33, 24-25-b].

**Xulosalar.** Yuqorida keltirilgan masalalarni tahlil qilish asnosida, davlat funksiyasi va moliyasiga doir tushunchalar bo'yicha xulosa va takliflar keltirildi:

Davlat funksiyasi – davlatning o'z fuqarolari oldidagi majburiyatlari, davlatning maqsad va vazifalarini bajarishga qaratilgan davlatning asosiy faoliyat yo'nalishi hisoblanadi.

Davlat vazifasi – davlatning o'z maqsadi va fuqarolari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qaratilgan doimiy ishi hisoblanadi.

Davlat funksiyasi quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1) davlat funksiyasi davlatning maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi va ular o'zgarsa davlat funksiyalari ham o'zgaradi;

2) davlat funksiyalari davlat vazifalarini bajarish bo'yicha birxil yo'nalishdagi o'xshash munosabatlarni tartibga solishga birlashadi;

3) davlat funksiyalari jamiyatdagi mavjud muammolarning o'zgarishi bilan takomillashib boradi;

4) davlat funksiyalaridan kelib chiqib, davlat mexanizmi va davlat organlari funksiyalanadi;

5) davlat funksiyalarini amalgi oshirish uchun hokimiyat-majburiy usullardan foydalanadi.

Davlat funksiyalarning tasnifi bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi: davlat funksiyalari tasnifi davlat funksiyalarining turli mezonlar asosida guruhlariga ajratishdan iborat bo'lib, 1) faoliyat doirasiga bo'yicha: ichki va tashqi funksiyalar 2) amal qilish davomiyligi bo'yicha: doimiy va muvaqqat funksiyalar ijtimoiy ahamiyati bo'yicha: asosiy va asosiy bo'lmagan funksiyalarga tasniflanadi.

Davlatning iqtisodiy funksiyasi – davlatning mamlakatda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ishlar bajarish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimini erkin bozor qonuniyatlari asosida boshqarish va tartibga solishga qaratilgan faoliyati bo'lib, davlat aholiga bozor iqtisodiyoti qoidalari va prinsiplar amal qiladigan erkin muhitni yaratadi, iqtisodiy faoliyatni, xususi mulk va xususi tadbirkorlikni qo'llab-qo'vvatlaydi.

Davlat iqtisodiy funksiyasi va davlat moliyasining o'zaro nisbati bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi: davlat moliyasi davlatning iqtisodiyotidan kelib chiqadi, xususan davlatning iqtisodiy funksiyasidan davlatning moliyaviy funksiyasi paydo bo'ladi. Chunki, moliyaviy munosabatlar iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi, chunki iqtisodiy faoliyatdan moliyaviy natijalar, xususan pul, daromad, narx va hisob-kitoblar kelib chiqadi. Shu asnoda, davlat mazkur moliyaviy munosabatlarni tartibga solish uchun moliyaviy siyosat, moliya tizimi, moliyaviy nazorat funksiyalarini ishlab chiqadi.

Moliya – bu tovar, ish va xizmatlar muomalasidan kelib chiqadigan pul, hisob-kitob va daromad munosabatlari hisoblanadi.

Davlat moliyasi – davlatning vazifa va funksiyalarini bajarish uchun pul mablag'larini jamlash, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi.

Davlat moliya tizimi va moliyaviy tizim tushunchalari ayni tushunchalar bo'lib, bir turdagi o'xshash moliyaviy munosabatlarni guruhlagan institutlarning jamlanmasi hisoblanadi, xususan, davlat budjeti; budjetdan tashqari jamg'armalar; kredit; sug'urta va korxonalar moliyasidan iborat (shaxsiy moliya yoki fuqarolar moliyasi).

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –Toshkent. “Adolat”, 2018. -B.107 (528 b)
2. Xojiyev E. Davlat va jamiyat boshqaruvining huquqiy asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent “Yangi kitob”, 2017.-B.19-21 (256)
3. M.Najimov, Sh.Saydullayev. Davlat funksiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent-2004. -B.10 (37)
4. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik/ X.T.Odilqoriyev, I.T.Tulteyev va boshqa.; prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida.-Toshkent.: Sharq”, 2009. -B.104-105 (568 b)
5. Saburov N., Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi / o'quv qo'llanma –Toshkent. TDYI, 2011.-B.32-33(170 b)
6. Saidov A., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2001.-B.190-191 (336 b)
7. Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.-Toshkent: TDYU, 2018. -B.47 (220 b)

8. Bolgov V.A., Shuvayeva Y.V. Funktsii gosudarstva: klassifikatsiya, roli xarakter v raznie periodi v Rossiyskoy Federatsii. Jurnal. Territoriya nauki.2017. №3,-B.-169-170
9. Stepanenko D. M. Innovatsionnaya funktsii gosudarstva. Avtoreferat kand yurid nauk. Minsk, 2022.-S.8-9 (44)
10. Morozova L.A. Teoriya gosudarstvo i prav: Uchebnik.-Moskva: Norma. INFRA-M, 2024.-C.105 (464)
11. Ashirbayeva M. X. O'zbekiston davlatining mintaqaviy suv resurslaridan oqilona foydalishni tashkil etish funksiyasi va uning huquqiy jihatlari. Avtoreferat yuridik falsafa fanlari bo'yicha.-Toshkent-2020.-B.13-14 (51)
12. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik/ X.T.Odilqoriyev, I.T.Tulteyev va boshqa.; prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida.-Toshkent.: Sharq", 2009. -B.107-112 (568 b)
13. M.Najimov, Sh.Saydullayev. Davlat funksiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent-2004, -B.14-15 (37)
14. Saburov N., Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi / o'quv qo'llanma –Toshkent. TDYUI, 2011,-B.34-39 (170 b)
15. Saidov A., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi.2001.-B.193 (336 b)
16. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –Toshkent. "Adolat", 2018. -B.108-109 (528 b)
17. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi / mas'ul muharrirlar: H.Rahmonqulov, akademik, yu.f.d., prof.,H.Boboyev, yu.f.d., prof. T.: Adolat, 2007.-B.304 (916 b)
18. Ashirbayeva M. X. O'zbekiston davlatining mintaqaviy suv resurslaridan oqilona foydalishni tashkil etish funksiyasi va uning huquqiy jihatlari. Avtoreferat yuridik falsafa fanlari bo'yicha.-Toshkent-2020.-B.13-14 (51)
19. Saburov N., Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi / o'quv qo'llanma –Toshkent. TDYUI, 2011,-B.34 (170 b)
20. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik/ X.T.Odilqoriyev, I.T.Tulteyev va boshqa.; prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida.-Toshkent.: Sharq", 2009. -B.107-108 (568 b)
21. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi / mas'ul muharrirlar: H.Rahmonqulov, akademik, yu.f.d., prof.,H.Boboyev, yu.f.d., prof. T.: Adolat, 2007.-B.306-307 (916 b)
22. M.Najimov, Sh.Saydullayev. Davlat funksiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent-2004.-B.14 (37)
23. Qobilov Sh.R. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. –Toshkent, 2013.-B.411 (775)
24. Qobilov Sh.R. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. –Toshkent, 2013.-B.409-410. (775)
25. A.Rahimova, E.Xojiyev. O'zbekiston Respublikasining moliya huquqi.Darslik. TDYUI.Toshkent-2002.-B.9(407)
26. A.Rahimova, E.Xojiyev. O'zbekiston Respublikasining moliya huquqi.Darslik. TDYUI.Toshkent-2002.-B.9-12 (407)
27. M.Yo'ldoshev, Y.Tursunov. Moliya huquqi. Darslik. TDYUI.-Toshent,2004.-B.9 (241)
28. Sh.B.Bilolxo'jayeva, G.T.Xakimov. O'zbekiston Respublikasi moliya huquqi. O'quv qo'llanma. TDYUU.-B.6 (504)
29. Adik Li. Finansovoye i bankovskoye pravo. Uchebnik. TGYUU.-Toshkent, 2021.-B.6 (277)
30. Hamidov A. M. Davlatning moliyaviy faoliyati. O'quv qo'llanma. TDYUI. Toshkent, 2009.-B.8 (177)
31. Finansovoye pravo Respubliki Uzbekistan. Kollektiv avtorov.Uchebnik. "Niso poligraf" Toshkent, 2022.-S.25 (552)
32. Finansovoye pravo Respubliki Uzbekistan. Kollektiv avtorov.Uchebnik. "Niso poligraf" Toshkent, 2022.-S.34-35 (552)
33. Finansovoye pravo Respubliki Uzbekistan. Kollektiv avtorov.Uchebnik. "Niso poligraf" Toshkent, 2022.-S.24-25 (552)



**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/6 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).